

RIVOYATLARNING BOLA TARBIYASIDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Abdullayeva Asolat Erkayevna

Samarqand davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 4-kurs talabasi

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda ta‘lim-tarbiya tizimini isloh qilish, uni zamon talablari darajasiga olib chiqish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq, intellektual salohiyati yuqori shaxslar etib tarbiyalash ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta‘lim-tarbiyaning dolzarblik kasb etayotgan bir davrda uni yuksaltirish uchun berilayotgan ishonch va imkoniyatlar to‘g‘risida shunday deydi: “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz”.

Bugungi ta‘lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – o‘quvchilarning madaniy saviyasi va tarixiy tafakkurini shakllantirish, ular ongida o‘z millati va boshqa xalqlar madaniyatiga nisbatan hurmat, tarixga nisbatan qiziqish uyg‘otishdan iboratdir. Bu maqsadga erishishda, ayniqsa, xalq rivoyatlari samarali pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi. Rivoyatlarda bayon etilgan tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar, madaniy meros namunalari o‘quvchilarga bevosita ijobiy ta‘sir o‘tkazadi.

Asosiy qism

Rivoyatlar og‘zaki nasrning qadimiy va muhim janrlaridan biri sifatida xalqning badiiy tafakkuri taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu janr insoniyat tafakkurining ilk bosqichlarida shakllangan bo‘lib, rivoyatlarning paydo bo‘lishida, ayniqsa, qadimgi afsonalarda kuzatiladigan mifologik qarashlar, tasavvur va tushunchalar muhim rol o‘ynagan. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida keng tarqalgan rivoyatlar orqali biz qadimgi ajdodlarimizning fikrlash tarzini, estetik qarashlarini, tarixiy ongini va hayotga bo‘lgan munosabatini anglash imkoniyatiga ega bo‘lamiz.

Ushbu janr o‘ziga xos janriy belgilar, mavzu doirasi, an‘anaviy epik motivlar, badiiy obrazlar tizimi va ifoda uslubi bilan ajralib turadi. Xususan, o‘zbek xalq rivoyatlarining obraz yaratishdagi poetik mahorati, voqelikni umumlashtirish va hayotiy haqiqatni san‘atkorona talqin etish qobiliyati bu janrning badiiy jihatdan mukammalligini ko‘rsatadi. Rivoyatlar o‘ziga xos badiiylilik va obrazlilik kasb etgan bo‘lib, ularda ifoda vositalari, tildagi poetik birliklar, kompozitsion qurilmalar muayyan tizimga ega. Ushbu unsurlar rivoyatlarni boshqa og‘zaki epik janrlardan farqlab turuvchi asosiy belgilar hisoblanadi.

Rivoyat – bu muayyan tarixiy voqea yoki real fakt bilan bog‘liq bo‘lgan voqeani hikoya qiluvchi epik janr bo‘lib, u o‘z mazmuni va shakliy tuzilishida tugallangan siymoga ega. Ushbu janrda bayon etilgan voqealar oddiygina uydurma emas, balki tarixiy voqelikning

o‘ziga xos badiiy talqini sifatida qaraladi. Rivoyatlarda qat’iy kompozitsion struktura, ma’lum stilistik qoliplar mavjud bo‘lib, ular orqali rivoyatning ma’naviy-estetik qiymati oshadi. Janrning tarixiylik xususiyati, uning voqelikka yondashuv uslubi va ifoda shakllari orqali belgilanishi mumkin. Rivoyatlarda tasvirlangan haqiqat va bu haqiqatga berilgan baho, shuningdek voqea-hodisaga munosabat har bir rivoyatning o‘ziga xos janrga xos xususiyatlarini ochib beradi.

“Roviy” atamasi rivoyat so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, voqeani eshitgan va uni qayta hikoya qilgan shaxsni anglatadi. Islomiy davrlarda ham roviylik faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan bo‘lib, tarixiy manbalarda qayd etilishicha, musulmon dunyosida professional roviylar mavjud bo‘lgan. Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida rivoyat naql qiluvchi kishilar haqida to‘xtalib, Ash-Sha’bi nomli roviylar haqida eslatib o‘tadi. Bu kabi dalillar roviylar qadimda mavjud bo‘lgan, jamiyatda tarixiy voqealarni avloddan-avlodga yetkazishda muhim ijtimoiy rol o‘ynaganini ko‘rsatadi.

Roviylar ko‘pincha yodida tarixiy rivoyatlarni saqlagan, ularni og‘zaki shaklda keyingi avlodga yetkazib bergan shaxslardan iborat bo‘lgan. Ushbu kishilar o‘z faoliyatida ko‘proq tarixiy voqealar bilan bog‘liq rivoyatlarga e‘tibor qaratgan. Shu jihatdan roviylar repertuarini asosan rivoyat, afsona, tarixiy hikoyalar tashkil qilgan. Rivoyatni aytuvchi kishining alohida ertakchi yoki dostonchi bo‘lishi shart emas edi. U eshitgan, bilgan ma’lumotlarini istalgan vaqt, sharoit va uslubda hikoya qilgan. Bu esa rivoyat janrining xalqchil, ommaga yaqin va har kim tomonidan ifodalanishi mumkin bo‘lgan xususiyatini belgilaydi.

Rivoyatlar ko‘pincha tarixiy voqealarni o‘rganishda, ularning sabab-oqibat munosabatini tushunishda qo‘shimcha manba sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu janrning afsonaga yaqinligi, tarixiy asosga egaligi ularning o‘zaro umumiy jihatlarini ko‘rsatadi. Ammo rivoyat va afsona o‘z mazmuni, shakli, tarixiylik darajasi va tasvir vositalariga ko‘ra mustaqil janrlar hisoblanadi. Rivoyatlarda real voqea va shaxslar hayotiy haqiqat asosida bayon etiladi, xayoliy o‘zgarishlar va to‘qimalar esa ikkinchi planda turadi. Bu esa rivoyatni xalq og‘zaki ijodining boshqa janrlaridan ajratib turadi.

Tarixiy rivoyatlar ijtimoiy hayot voqealari, mashhur shaxslarning faoliyati, donishmandlarning aql-idroki, mohir tabiblarining davolash san’ati, shahar va qo‘rg‘onlarning yaratilish tarixi, buzilish sabablari haqida ma’lumot beradi. Joy va makon nomlarining kelib chiqishi bilan bog‘liq bo‘lgan voqealar ham ko‘plab rivoyatlarning markaziy mavzusi sifatida maydonga chiqadi. Bu rivoyatlar orqali xalq o‘z tarixini, o‘z shahrining yoki zaminining o‘tmishini anglashga, uni badiiy shaklda ongida tiklashga harakat qilgan.

Rivoyat haqiqatning bilvosita badiiy ifodasidir. Undagi tarixiy faktlar va hayotiy voqealar badiiy shaklda talqin qilinadi. Bu holat rivoyatning mazmuniy chuqurligi bilan birga uning shakliy tuzilishiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Rivoyat voqealari tinglovchida ishonch uyg‘otishi, ularni chin haqiqat sifatida qabul qilinishi bilan ahamiyatlidir. Bu jihatlar uni xalq badiiy tafakkurining rivojida, tarixiy xotiraning shakllanishida, badiiy estetik didning o‘sishida beqiyos o‘ringa ega bo‘lgan janr sifatida namoyon etadi.

Rivoyatlar xalqning tarixiy xotirasini saqlovchi, milliy o'zlikni anglashga xizmat qiluvchi bebaho og'zaki yodgorliklardandir. Ularda faqatgina voqealarning bayoni emas, balki o'sha davrdagi odamlarning hayotga, jamiyatga, axloq va odob me'yorlariga bo'lgan munosabati, qadriyatlar tizimi ham aks ettirilgan. Shu boisdan rivoyatlar yosh avlodni milliy g'urur, vatanparvarlik, halollik, adolatparvarlik, sabr-toqat va mehnatsevarlik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalashda kuchli vosita bo'lib xizmat qiladi.

Rivoyatlar avloddan-avlodga o'tib kelgan xalq hayotiy tajribasining badiiy ifodasi, e'tiqod, qadriyat, urf-odat, an'ana hamda toponimik anglashuvlar bilan bog'liq holda shakllanib borgan. Shu boisdan rivoyatlar xalq og'zaki ijodining epik janrlaridan biri sifatida qaraladi. Ular, ko'p hollarda, muayyan ijtimoiy yoki madaniy voqealarga ijodiy to'qima orqali asoslanadi. Rivoyatni aytuvchi shaxs esa voqeaning mazmuni va asosiy g'oyasini saqlagan holda, uni o'z didi va tajribasi asosida biroz o'zgartirishga haqlidir. Bu jihatdan rivoyatlar har xil mavzularga bag'ishlangan bo'lib, ular orasida mifologik voqealar, kosmogonik tasavvurlar, toponimik izohlar, urf-odat va rasm-rusumlar bilan bog'liq rivoyatlar alohida o'rin tutadi.

Rivoyatlar o'z tabiatiga ko'ra afsonalardan hayotiy haqiqatga yaqinligi bilan ajralib turadi. Agar afsonalar ko'proq xalq tasavvurida shakllangan, to'qima voqealarga asoslangan bo'lsa, rivoyatlar esa muayyan tarixiy voqelikdan ildiz olgan hodisalarning badiiy ifodasidir. Mazmunan ular afsonalardan unchalik farq qilmasa-da, rivoyatlar zahirida muayyan tarixiy asos, voqea yoki shaxsga doir dalil mavjudligi ularga xos xususiyat sanaladi. Aksar hollarda bu kabi rivoyatlar bevosita ushbu voqealarning guvohlari tomonidan yozib qoldirilgan yoki og'zaki tarzda avloddan-avlodga yetkazilgan bo'ladi. Shu boisdan rivoyatlar bizni o'tmish sahifalari, tarixiy shaxslar hayoti hamda muayyan voqealarning ichki mohiyati bilan tanishtirishi bilan e'tiborga loyiqdir. Ular orqali tariximizda muhim o'rin tutgan mashhur zotlar, jasorat timsoli bo'lgan insonlar, ayrim hudud yoki joy nomlarining kelib chiqish tarixi yoritiladi.

Rivoyatlar ham, afsonalar singari, ma'lum turlarga bo'linadi. Asosan ular tarixiy mazmundagi va joy nomlariga oid rivoyatlar tarzida shakllanadi. Tarixiy rivoyatlar xalqimiz ozodligi yo'lida jonini fido qilgan fidoyi insonlar jasorati yoki o'z manfaatini yurt manfaatidan ustun qo'yib, dushmanga yurtni topshirgan xoinlarning xiyonatini hikoya qiladi. Shu orqali xalqning or-nomusi, matonati va sadoqati, shuningdek, xoinlik oqibatlari eslatib turiladi. Xususan, To'maris, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur kabi tarixiy shaxslar hayotiga oid rivoyatlar bu borada yorqin misol bo'la oladi. Ularning har biri o'z yurti, el-yurt tinchligi uchun kurashgan fidoiy inson sifatida yodga olinadi. Agar bugungi avlod ham ana shunday buyuk ajdodlarga munosib tarzda vatanparvarlik tuyg'usi bilan yashasa, yurtimiz abadiyat sari odimlayveradi. Rivoyatlarning avlodlarga meros sifatida yetkazilishidagi asosiy maqsad ham aynan shundan iborat bo'lib, yosh avlod qalbida vatanparvarlik, sadoqat va tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, Dalvarzin va Guldursin kabi qadimiy shaharlar haqidagi rivoyatlarda esa vaqtincha manfaatlarga aldanib, shahar darvozasini dushmanga ochib bergan pastkash insonlar kirdikorlari fosh etiladi. Ushbu joylarning xarobalari asrlar o'tgan bo'lsa-da, ularning izlari hanuzgacha xalq xotirasida saqlanmoqda va bu holat xiyonatning hech qachon kechirilmasligini eslatib turadi.

O'zbek xalqining bebaho ma'naviy merosida Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Marg'iloniy, Abu Ali Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi ulug' allomalar hayoti haqida yaratilgan o'nlab rivoyatlar hanuzgacha og'zaki ijodiy an'anada yashab kelmoqda. Bu rivoyatlar nafaqat tarixiy shaxslar faoliyatiga oid qiziqarli tafsilotlarni bayon etadi, balki xalqning ilm-fanga bo'lgan ehtiromini, ulug' zotlarga nisbatan iftixorini ham namoyon etadi.

Rivoyatlarni avlodlar uchun meros sifatida qoldirishdan ko'zlangan asosiy maqsad ham – tarixni unutmaslik, vatanparvarlik g'oyasini mustahkamlashdir. Shuningdek, ayrim joy nomlari bilan bog'liq rivoyatlar ham bor. Masalan, “Dalvarzin”, “Guldursin” haqidagi rivoyatlarda dushmanga havas qilib, o'z shahrining darvozalarini ochib bergan kimsalarning razil qilmishlari ifodalanadi. Bu kabi rivoyatlar vositasida vayron bo'lgan shahar va qal'alar xarobalari hamon xalq xotirasida xoinlikdan ogohlik belgisi sifatida saqlanib qolgan.

Shuningdek, o'zbek xalq og'zaki ijodida buyuk allomalar – Imom Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Burhoniddin Marg'iloniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi shaxslar haqida yaratilgan o'nlab rivoyatlar mavjud bo'lib, ular bugungi kungacha xalq orasida saqlanib kelmoqda.

Masalan, quyidagi rivoyatda Abu Ali ibn Sinoning bilimdonligi va zakovati o'z ifodasini topgan: har kuni bemorlarni davolovchi Ibn Sino bir yigitni doimiy ravishda chetlab o'tadi. Oradan vaqt o'tib, yigit zaharlangan qatiqni ichib, mo'jizaviy tarzda sog'ayadi. Yana tabib qabuliga kelganida ham uni e'tiborsiz qoldiradi. Shunda yigit norozilik bildirganida, Ibn Sino unga: “Avvalgi holatingizda sizga hech qanday davo yordam bera olmasdi. Men sizning boshdan kechirishingiz kerak bo'lgan sinovni bilsam-da, ayta olmasdim. Endi esa siz butunlay sog'aysiz, menga ehtiyoj qolmadi,” deydi. Bu rivoyat orqali tabibning faqat tibbiy emas, balki hayotiy tafakkur va taqdirni anglash borasida ham yetuk shaxs bo'lgani ochiqqlanadi. Bunday rivoyatlarda voqea qisqa lavhalar asosida yoritiladi, bu esa ularning ixchamligini ko'rsatadi.

Joy nomlari bilan bog'liq rivoyatlardan yana biri “Malik cho'li” haqidadir. Buxoro va Navoiy oralig'idagi bu cho'lining nomi bilan bog'liq hikoyani mashhur baxshining o'g'li Berdi ota rivoyat qilib bergan.

Rivoyatda Buxoro amirining cho'lda dam olayotgan mahalida shotiri Malik bir chivinning g'alati harakatlarini kuzatib, sichqon inini qazib, ikki xum tilla topadi. Bu boylik evaziga u atrofdan ustalarni to'plab qishloq barpo qiladi. Shundan buyon bu hudud “Malik cho'li” deb ataladi. Ushbu rivoyat nafaqat tarixiy xotirani ifoda etadi, balki joy nomining kelib chiqish sababini ham tushuntirib beradi.

Umuman olganda, rivoyatlar xalq og‘zaki ijodining epik janriga kiruvchi keng tarqalgan asarlardir. Ular, afsonalardan farqli ravishda, tarixiy voqea-hodisalarga asoslangan holda shakllanadi. Rivoyatlar asosan tarixiy va toponimik xususiyatlariga ko‘ra tasniflanadi. Bunday hikoyalar odatda voqeaga bevosita guvoh bo‘lgan shaxslar tomonidan yozib qoldiriladi yoki og‘zaki shaklda avloddan avlodga yetkazilib kelinadi. Shu tariqa rivoyatlar milliy xotiraning saqlanishi, tarixiy ongning shakllanishi va vatanparvarlik ruhining qaror topishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2023. – 416 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. – 592 b.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni “Xalq so‘zi”, 2017-yil 8-aprel, 28 (6722).
4. Asotir va rivoyatlar. To‘plab nashrga tayyorlovchilar: M.Murodov, M.Shayxova.1990. –128 bet.
5. Avlayeva O.U., Jo‘rayeva S.N., Mirzayeva S.P. Ta’lim metodlari. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: “Navro‘z”. 2017. – 222 bet.
6. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi. 1-sinf I qism. Toshkent: “Novda Edutainment”. 2024. – 80 bet.
7. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. 1-sinf II qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2024. – 80 bet.
8. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. 2-sinf I qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 80 bet.
9. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi. 2-sinf III qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 80 bet.
10. Aydarova U.B. O‘qish savodxonligi. 2-sinf IV qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 80 bet.
11. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi. 3-sinf III qism. Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023. – 80 bet.
12. Aydarova U.B., Azizova N.K. O‘qish savodxonligi. 3-sinf IV qism. Toshkent: “Novda Edutainment”. 2023. – 80 bet.
13. Aydarova U.B., Azizova N.K., Toirova M.E. O‘qish savodxonligi 4-sinf II qism. Toshkent: “Novda Edutainment”. 2023. – 80 bet.
14. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. –Toshkent: “O‘qituvchi”, 2019. – 280 bet.

15. Jamilova B. Bolalar adabiyotida zamonaviylik. – Buxoro: “Bukhara hamd print”, 2023. –264 bet.
16. Jo‘rayev M., Saidova R. Buxoro afsonalari. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 125 bet.
17. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2010. –228 bet.
18. Madayev O. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi. Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2010. –228 bet.
19. Matchonov S. (2020). Adabiyot darslarida tahlil va talqin uyg‘unligi. //Til va adabiyot ta’limi. 7(7), 8-11-betlar.
20. Mavlonova R., To‘raeva O., Holiqberdiev K. Pedagogika. Toshkent: “O‘qituvchi”, 2001. –214 bet.
21. Mo‘minova N. (2023.03.06) “Afsonalar badiiyotida xalqona tarbiya”. //So‘nggi ilmiy tadqiqotlar nazariyasi respublika ilmiy-uslubiy jurnali. 6(6). 237-241 betlar. <https://bestpublication.org/index.php/sit/article/download/6834/7157/6440>.
22. Muslimov N.A.,Qo‘ysinov O.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta’limni tashkil etish. Metodik qo‘llanma. “TDPU”, 2006. –46 bet.
23. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirish. – Toshkent: “Fan”, 2004. –130 bet.
24. Ochilov M.Sh. Yangi pedagogik texnologiyalar. Qarshi: “Nasaf”, 2000. –97 bet.
25. Qosimov U. Adabiyotning hayotbaxsh kuchi. – Toshkent: “O‘zMU kutubxona nashriyoti”. 2008. – 345 bet.
26. 23 . Quronov D.H. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Noshir”, 2019. – 336 bet.
27. Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Toshkent: “A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti”. 2004. –224 bet.
- 28.